

## AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI № 01

Termiz shaxri

2022 yil 7 yanvar

«SHERALI-SHERZOD AVTOSERVIS» MChJ keyingi o'rinlarda «IJROCHI» deb yuritiladi, nizom asosida xarakat qiluvchi direktori Sh.Sh. Kurbonov nomidan bir tomondan va «ELEKTROMAGNIT MOSLASHUV MARKAZI» DUK keyingi o'rinlarda «BUYURTMACHI» deb yuritiladi, Nizom asosida xarakat qiluvchi boshlig'i R.P. Mansurov nomidan ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida maskur shartnoma tuzdilar.

### 1. SHARTNOMA PREDMETI.

- 1.1. Buyurtmachi topshiriq beradi, Ijrochi esa quyidagi xizmatlarni ko'rsatish (ishlarni bajarish) majburiyatini oladi. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va extiyot qismlar o'rnatish.
- 1.2 Ko'rsatilgan xizmatlarga (bajariladigan ishlarga) nuqson dalolatnomasi asosida xizmat ko'rsatiladi.

### 2. ISHLAR (XIZMATLAR) QIYMATI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

**Buyurtmachi: «Elektromagnit moslashuv markazi» DUK**

**Avtomashina: «UAZ Hanter» Dav. raqami 75/714 EAA va «Neksiya 3» Dav. raqami 75/211 VAA**

№	Bajarilgan xizmatlari nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Summa	Umumiy summa QQSiz
1	2022 yil davomida «UAZ Hanter» va «Neksiya 3» avtomashinalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash				
2					
3					
4					
5					

#### Jami summa:

- 2.1 Bajarilgan ishlar (xizmatlar) uchun Buyurtmachi shartnomaga asosan shu jumladan oldindan to'lov tartibida xar bajarilgan xizmatning nuqson dalolatnomasiga asosan 15% miqdorini to'laydi. «Ijrochi»ning maxsus hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi
- 2.2 Ijrochi ko'rsatilgan xizmatlarni (ishlarni) to'liq bajarib berilgandan so'ng qabul qilish topshirish dalolatnomasiga asosida 5 bank kunida qolgan 85% to'lov «taminotchi» ning maxsus hisob raqamiga o'tkazib beriladi.
- 2.3 Ijrochining o'zi ayibdor bo'lmagani xolda xizmatlarni bajara olmagan taqdirda, Buyurtmachi Ijrochiga uning xarajatlarini to'lashi shart, bunda Ijrochining xizmatlari ko'rsatishdan ozod qilinishi munosabati bilan olgan yoki olishi mumkin bo'lgan foydasi chegirib qolinadi.
- 2.4 Buyurtmachining aybi bilan xizmatni bajarish mumkin bo'lmay qolgan taqdirda, xizmatlar baxosi butunlay to'lanish kerak.

### 3. ISHLAR (XIZMATLAR)NI TOPSHIRISH QABUL QILISH TARTIBI.

- 3.1 Ijrochi ushbu shartnomaning 1.1 – bandida nazarda tutilgan xizmatlarni (ishlarni) shaxsan o'zi bajarish shart.
- 3.2 Ishlar bajarilgandan so'ng Ijrochi Buyurtmachiga bajarilgan ishlar (xizmatlar)ni topshirish –qabul qilish dalolatnomasini etib unga bajarilgan xizmatlar xujjatlarini ilova qiladi.
- 3.3 Xizmatlar natijalardan qoniqmagan Buyurtmachi dalolatnomani olgan paytdan boshlab 2 (ikki) kun ichida Ijrochiga ishlarni qabul qilishdan bosh tortish to'g'risida asoslantirib yozma radnoma yuborish shart.
- 3.4 Buyurtmachining radnomasi asosli deb topilgan taqdirda, taraflar ikki tomonlama dalolatnoma tuzadilar va unda qo'shimcha bajarilishi lozim bo'lgan xizmatlar ro'yxati va ularni bajarish yoki bajarishni to'xtatish muddalarini ko'rsatadilar.
- 3.5 Xizmatlarni ko'rsatish jarayonida ularni davom ettirish imkoniyati yoqligi yoki maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, Buyurtmachi bu xaqida Ijrochini xabardor qilinishi va u bilan birga zaruriy choralarini ko'rishi shart.



#### 4. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI NIZOLARNI XAL QILISH.

- 4.1 Ijrochi mazkur shartnomaning shartlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, u keltirgan zararni Buyurtmachiga to'raligicha to'lashi shart, lekin bu to'lov ushbu shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar baxosining bir baravardan ortik bo'lishi mumkin emas
- 4.2 Shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.
- 4.3 Ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan nizolar Iqtisodiy sudida xal etiladi.

#### 5. YAKUNIY SHARTLAR.

- 5.1 Ushbu shartnomaga xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtiriladi va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy xisoblanadi.
- 5.2 Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O'zbekiston Respublikasini amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, yetkazilgan zarar qoplangan xolda yo'l qo'yiladi.
- 5.3 Buyurtmachi xizmatlarning belgilangan baxosini to'lik to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli, shartnoma Ijrochining aybli xarakatlari tufayli bekor qilingan xollar bundan mustasno.
- 5.4 Ijrochi ushbu shartnoma bekor qilinishi tufayli Buyurtmachiga yetkazilgan zararining xammasini to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqli, shartnoman Buyurtmachining aybi bilan bekor qilingan xollar bundan mustasno.

#### 6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

- 6.1 Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil «31»dekabrgacha belgilanadi.
- 6.2 Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, taraflarga bir nusxadan beriladi.

#### 7. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI.

##### I J R O C H I

«SHERALI-SHERZOD AVTOSERVIS» MChJ

Termiz shahar A. Qaxxor 12 uy

x/r: 20208000100615935001

MFO: 01063, INN: 303929145

OKED: 45201


“Trasbank” Termiz shahar

“SHERALI-SHERZOD AVTOSERVIS” Karbonov Sh.Sh



##### B U Y U R T M A C H I :

“ЭЛЕКТРОМАГНИТ МОСЛАШУВ МАРКАЗИ” ДУК
Тошкент шаҳар, Ферғона йўли кўчаси, 15 Тел: 230-41-34
X/p: 2021 0000 5001 5526 3001
АТ “Алоқабанк” МҚО: 00401
ИНН: 201 057 444 ОКЕД: 61900



Men \_\_\_\_\_ yurist O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari talablariga mos kelishligini aniqladim:

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil / \_\_\_\_\_ / \_\_\_\_\_

Handwritten signatures and notes at the bottom of the page.